



O'QUVCHILARDA KRITIK (TANQIDIY) FIKRLASH DARAJASINI OSHIRISHDA INTERFAOL TEST METODLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

D.B.Jonibekov

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. O'quvchilarni o'qitishda ularning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Shu bois, ushbu maqolada o'quvchilarda kritik ya'ni tanqidiy fikrlash hamda 4K modeli asosida o'qitishda ularning IQ(intellectual question) darajasini oshirishda interfaol test metodlaridan foydalanish usullarini dars mashg'ulotlarida samarali qo'llash shakllarini ko'rib chiqamiz.

Kirish. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchi va talaba yoshlarning egallagan bilimlari va soda, aniq, ko'p vaqt talab etmasdan, o'quvchi va talabalarning o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etishlari, olgan bilimlarining qay darajada tushunganligi, erkin ijodiy fikr yuritishlari uchun test metodlarini takomillashtirish, beriladigan savollarning javob variantlari ichida o'quvchi va talabalarning tanlagan variantiga to'ldiruvchi izohlar qoldirishi va agar berilgan javob variantlari ichida kamchilik yoki xatoliklar bor degan fikrda bo'lsa, albatta bu haqida ham o'zlarining javob variantlarini taklif qilishlari va berilgan javob variant asosli bo'lsa albatta qo'shimcha rag'batlantiruvchi ballar berib boriladi.

Bu test metodini "Mening fikrim" testi, ya'ni o'z nomidan anglab olish mumkinki, bunda o'quvchi va talabalarning olgan bilimlarini mustahkamlash va o'rgangan amaliy-ko'nikma va malakalari haqida o'qituvchi pedagoglarga ancha samarali foyda beradi.

Tesning baholash usuli. Test tuzilishi xalqaro PISA (*inglizcha - Programme for International Student Assessment*) standartlariga javob beruvchi test metodidir.

Ma'lumot o'rnida PISA testi haqida qisqacha ma'lumot bersak. PISA testlari Hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma'lumotlarni hosil qila olishdir. Xuddi shu o'zgarishlarni ta'lim tizimida aks ettirish, maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va



muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Metodlar. O'zbekiston 2022-yilda uch yo'nalish: O'qish, matematik savodxonlik va tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishlari bo'yicha testlarda qatnashishdi. Kelgusida esa 2025-yilda ham ishtirok etishi belgilangan. Testlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha: Eng asosiy tushunchalarni bilishi; bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani; ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.

Testlar sinovlari odatda to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

- ✓ bir javobli testlar;
- ✓ bir nechta javobli testlar;
- ✓ qisqa yoki batafsil javob yoziladigan;
- ✓ biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzivchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab quvvatlanadi) yoziladigan test shakllarida tuziladi.

Yuqorida ko'rinib turibdiki, biz taklif qilayotgan test metodi xalqaro PISA standartiga to'la javob beruvchi texnologiyadir. Bu test metodi ko'proq maktab o'quvchilari uchun olinadigan PISA testlari sifatida foydalanish mumkin bo'lsada, kollej va akademik litsey hamda Oliy ta'lim muassasasi o'quvchi va talabalarining o'tilgan seminar yoki amaliy mashg'ulot darslarida joriy baholash bosqishlarida, ma'ruza mashg'ulotlarida esa didaktik o'yin texnologiyasi sifatida foydalanib, tinglovchilar bilan qulay muloqot, darsni boshlashda qiziqtiruvchi, diqqatni fanga va uning atrofida bo'layotgan jarayonlarga jalb etish mumkin.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchi va talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyatini tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z



imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular *didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi* va *ijtimoiylashuv* maqsadlarda qo‘llanadi. *O‘yinning didaktik maqsadi* bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi. *O‘yinning tarbiyaviy maqsadi* mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma‘naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirisha olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Natija. Ushbu testda, har bitta savolning to‘g‘ri tanlangan javob variant uchun 1 ball va nima uchun bu variantni tanlaganiga ta’limiy, ijodiy, mantiqiy yoki o‘zining fikrlash qobiliyati bilan izoh bera olsa va/yoki berilgan savolda va variantlar qatorida kamchilik yoki o‘zining boshqa javob variantini taklif qilsa va bu asosli tarzda isbotlansa, u holda yana 1 ball beriladi, Demak, har bitta savol uchun beriladigan javob variantiga maksimum 2 ball olishi mumkin. Bunday baholash tizimi esa, o‘z navbatida o‘quvchi va talabalarning tavakkalchilik bilan yuqori baho bilan baholanmasligini oldini oladi va mustaqil fikrlashga o‘rgatib, o‘quvchi va talabalarning o‘z usitida mustaqil ishlashlariga undaydi.

Testdan namuna:

“Mening fikrim” testi

_____ - sinf/guruh (tagiga chizing)

Fan nomi: Informatifa va AT.

F.I.SH

1. Uchlik sanoq sistemasida nechta raqam qatnashadi?
A) 2 ta
B) 1, 2,3 raqamlari qatnashadi
C) 4 ta



D) O'zingizning javob variantingiz yoki tanlagan variantingizga to'ldiruvchi izoh bo'lsa yozing:

2. Triadaga mos keluvchi sanoq sistema(X_n)larini ko'rsating?

A) X_2 , X_6 , X_8

B) X_9 , X_{15}

C) X_{10} , X_{16}

D) O'zingizning javob variantingiz yoki tanlagan variantingizga to'ldiruvchi izoh bo'lsa yozing:

3. Triada usuli orqali 721_8 ikkilikdagi qiymatini toping

A) 111010001

B) 100010111

C) 100111010

D) O'zingizning javob variantingiz yoki tanlagan variantingizga to'ldiruvchi izoh bo'lsa yozing:

4. 49_{10} sonini 13 lik sanoq sistemasidagi qiymatini hisoblang.

A) 2A

B) 3B

C) 3,10



D) O'zingizning javob variantingiz yoki tanlagan variantingizga to'ldiruvchi izoh bo'lsa yozing:

5. Shifrlangan axborotni 4 ta belgi o'ngga surib yeching: rchpchj=?

A) vatan

B) maktab

C) varoq

D) O'zingizning javob variantingiz yoki tanlagan variantingizga to'ldiruvchi izoh bo'lsa yozing:

6. $1+0=1$; $1-0=1$; $1+1=10$; $10+10=100$; $100-11=1$. Ushbu amallar qaysi sanoq sistemasida bajarilgan?

A) ikkilik sanoq sistemasi

B) o'nlik sanoq sistemasi

C) A va B javoblar to'g'ri

D) O'zingizning javob variantingiz yoki tanlagan variantingizga to'ldiruvchi izoh bo'lsa yozing:

7. Axborot miqdorini aniqlang.

A) 1 kilobayt (KB)= 2^{10} bayt

B) 2048 KB=1 terabayt (TB)

C) 2^{20} MB=1PB;



D) O‘zingizning javob variantingiz yoki tanlagan variantingizga to‘ldiruvchi izoh bo‘lsa yozing:

8. Elektron pochta manzili to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping

A) info@xtv.uz

B) udu@exat.uz

C) maktab@gmail.com

D) O‘zingizning javob variantingiz yoki tanlagan variantingizga to‘ldiruvchi izoh bo‘lsa yozing:

9. robocontest.uz platformasiga qanday kirish mumkin?

A) Brauzer orqali ziyonet.uz web manzilini qidiruvga berish orqali

B) Googlega “ziyonet” deb yozish orqali

C) Yandexga “ziyonet” deb yozish orqali

D) O‘zingizning javob variantingiz yoki tanlagan variantingizga to‘ldiruvchi izoh bo‘lsa yozing:

10. URL nima ekanligini tushuntiring.

A) Internetning ba’zi qismlaridan foydalanishga imkon beruvchi va foydalanuvchilarga turli xizmatlarni ko‘rsatuvchi firmalardir.

B) Web-sahifalar majmui



C) Internetga murojaat qilishning eng oddiy va qulay usuli bo'lib, u takrorlanmas manzilni ifodalaydi.

D) O'zingizning javob variantingiz yoki tanlagan variantingizga to'ldiruvchi izoh bo'lsa yozing:

Xulosa. Ta'limdagi didaktik o'yinlar o'quvchi va talabalarning darsdagi faolligini ta'minlaydi. Yangi ilmiy nazariy bilimlarni beraolmasada ammo yosh avlodning darsdagi qiziqishini bilim olish jarayonini fikrlash qobiliyatini, analiz va sintez (taqlil va umumlashtirish) ga o'rgatadi, ularning qobiliyat va iqtidorlarini, og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Didaktik o'yin texnologiyalarining shakl va vositalari o'rganildi, darslarini tashkil etishda didaktik o'yin texnologiyalardan foydalanish usullari tadqiq etildi, Informatikadan darslarni tashkil etishda didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi yaratildi va bu bo'yicha IQ (aqliy bilish darajasi)ni aniqlashda mobil ilova dasturi yaratildi, hamda foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T., 2008-yil
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar" – O'qituvchi, 2007
4. Omonov X.T., Xattobov M.B. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T., 2016